

**Tumanda aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash hamda ularni biznesga jalb qilish bo'yicha "Sayxunobod", "Uychi", "Zarbdor" va "G'ijduvon" tajribalari asosida maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilishi yuzasidan tuman hokimi Babonazarov Bahodir Qodirovichning hisoboti**

***Assalomu alaykum hurmatli deputatlar, sessiya ishtirokchilari!***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2024-yil 17-iyul kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Sayxunobod", "Uychi", "Zarbdor" va "G'ijduvon" tajribalari asosida aholini biznesga jalb qilish, bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish bo'yicha har bir tumanlar ushbu hududlar misolida tuman (shahar) hokimlari, tijorat bank rahbarlari va mahalla fuqarolar yig'inlari raislari o'zaro hamkorlikda ishlash bo'yicha uch tomonlama shartnoma tuzgan holda ishlarni tizimli tashkil qilish;

Bunda, Har bir mahalla uchun tuzilgan ushbu shartnoma o'sha mahalla aholisining daromadlarini oshirish, xususan ishsizlarni bo'sh ish o'rinaliga joylashtirish, ularga subsidiya, kredit mablag'larini ajratish va kasb-xunarga o'qitish orqali daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, tadbirkorlik subektlarining muammolarini hal etish, mahalla infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishda tomonlarning o'zaro munosabatlarni tartibga solish bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Ushbu shartnomaning predmeti - mahallada quyida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali, aholi bandligini ta'minlash, mahalla ixtisoslashuvini kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat. Jumladan:

**a) "Sayxunobod tajribasi"**ni rivojlantirish;

Bunda, xonadonbay ish tashkil etib, hokim va hokimning o'rinosarlari mahallalarda tijorat banklari bilan xonadonlar uchun moliyaviy paketlarni taqdim etadi. Yetakchi tadbirkorlarni jalb etgan holda aholi tomorqalarida yuqori daromadli ekinlar ekilishi tashkil etiladi, mahalla ixtisoslashuvini kengaytirish orqali xonadonlarning daromadini oshirish choralarini ko'rildi

**b) "Uichi tajribasi"**ni rivojlantirish;

Bunda, "Uichi tajribasi" asosida tuman hokimi (o'rinosari) har xafta mahalladagi **tadbirkorlar** bilan, tijorat bank filiali rahbarlari **mijozlari** bilan uchrashib, ularning muammolarini hal etish, biznesini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish orqali yangi ish o'rinalari tashkil etiladi.

**v) "G'ijduvon tajribasi"**ni joriy etish va rivojlantirish;

Bunda, "G'ijduvon tajribasi" asosida tadbirkorlar bilan "mahallabay" ishlab, ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahallalarda yoki unga tutash hududlarda "tepaga o'sadigan" (vertikal) sanoat binolari tashkil etilib, xonadonlardagi ishlab chiqarish syexlarini ushbu binolarga ko'chiriladi.

**g) “Zarbdor tajribasi”ni joriy etish va rivojlantirish.**

Bunda, mahallada tumanni rivojlanishiga turtki beradigan 5-7 ta drayver loyihalar 2024-yil 1-oktyabrga qadar “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida “drayver” loyiha ishga tushiriladi.

Mahalla ixtisoslashuvi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib 50 ta mahallalarning “Mahallani rivojlantirish biznes-reja”lari ishlab chiqilib amalga oshiriladi.

Sayxunobod va Uychi tajribasida amalga oshirilgan ijobjiy tajriba Toyloq tumani sharoitida (serhosil, yuqori ball banetitli yer, SUV) 3 marta hosil olish amaliyoti to‘liq joriy etiladi.

Aholining talabi, shuningdek eksportga mo‘ljallangan serdaromad gulkaram, sabzi, rukolla, kulipnik, rediska va qo‘ziqorin mahsulotlarini bir issiqxonaning ichida tartibli, agrotexnika tadbirlari amaliyoti joriy etiladi.

Har bir mahalla talabidan kelib chiqgan holda kichik ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish shaxobchalari, kasanachilik, hunarmandchilik sohasida loyihalarni amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, asosiy vazifalardan biri g‘alladan bo‘shagan 4175 hektar yer maydonlari hisobidan 1685 hektar yer maydonini 5617 nafar ishsiz va ijtimoiy daftarlarda ro‘yxatda turgan aholi qatlamiga bir martalik sabzavot ekinlari uchun ajratib berish hamda ularga takroriy ekinlarni ekishga amaliy yordam berishdan iborat.

Tumanda “Bir kontur-bir mahsulot” tamoyili asosida 3 ta konturdagi 14,5 hektar yer maydonida 3 ta loyihalarni amalga oshirilmoqda. 1 ta loyiha uchun o‘rtacha 4,8 hektar yer maydoni to‘g‘ri kelib, kooperativ a’zolari soni 67 tani tashkil etadi.

Bugungacha tashkil etilgan 3 ta “Agregator”lar tomonidan 3 ta namunali loyihalar uchun Talliota MFYga 2,0 kg sabzi, Galabotir MFYda 230 kg loviya, Qo‘rg‘oncha MFYga 800 kg no‘xot uchun urug‘ yetkazib berilgan, 14,5 hektar yer maydonlarida agrotexnik tadbirlar amalga oshirilgan.

Natijada, 3 ta konturdagi 14,5 hektar yer maydonida 2,0 hektar sabzi, 2,9 hektar loviya, 9,6 hektar no‘xat ekilgan.

Ushbu maydonlardan jami 95 tonna mahsulot yig‘ishtirib olish rejalashtirilgan. Jumladan, 60 tonna sabzi, 25 tonna no‘xat, qariyb 10 tonna loviya mahsulotlari yig‘ishtirib olinishi kutilmoqda.

Jumladan, Talliota mahallasida 277-sonli kontur tanlab olingan bo‘lib, mas’ul tuman Agro banki biriktirilgan. 2 hektar yer maydoniga 2 kg sabzi urug‘i ekilgan. mahsulotni sotib olish bo‘yicha "Akmal Toshpulatovich" f/x "Agregator" sifatida biriktirilgan bo‘lib, 60 tonna sabzi maxsulotini yig‘ishtirib olish rejalashtirilgan. 10 nafar fuqarolar kooperatsiyaga a’zo qilinib, 720 mln.so‘m miqdorida foyda olinib 10 nafar fuqarolar bandligi ta’milnadi.

Tumanda soha va tarmoqlarda kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari natijasida 2024-yilning **birinchi yarim yilligida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ijrosi** ta’milnab, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **1 trln. 218 mlrd. so‘mni** yoki **105,7 foizga**, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish **1 trln. 402 mlrd. so‘mni** yoki **105,1 foizni**, xizmatlar ko‘rsatish hajmi **642,1 mlrd. so‘mni** yoki **109,7 foizni**, chakana savdo aylanmasi **401 mlrd. so‘mni** yoki **108,6 foizni** tashkil etdi.

Bunda, sanoat mahsulotlarining viloyat sanoatidagi ulushi **6,5 foizni**, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari **7,7 foizni**, xizmatlar hajmidagi ulushi **4,0 foizni**, pudrat ishlari dagi ulushi **6,7 foizni** va chakana savdo aylanmasidagi ulushi **3,0 foizni** tashkil qildi.

Buning natijasida tuman aholisining jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi **5,5 mln. so‘mni**, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish **6,3 mln. so‘mni**, xizmatlar hajmi **2,9 mln. so‘mni**, pudrat ishlari hajmi **1,6 mln. so‘mni** va chakana savdo aylanmasi hajmi **1,8 mln. so‘mni** tashkil qildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha tumanda klaster asosida ishlarning tashkil qilinishi, xom-ashyo mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga alohida e’tibor qaratildi. Natijada, hudduddagi "PET AGRO OIL" qo‘shma korxonasida 401,5 mlrd. so‘mlik o‘simlik va paxta yog‘i, "PUREMILKY WORKS" MCHJda 96,4 mlrd. so‘mlik sut mahsulotlari, "Siyob Shavkat Orzu" fermer xo‘jaligida 191 mlrd. so‘mlik qadoqlangan parranda va mol go‘shti, "PET SAM PLAST PREMIUM" xorijiy korxonasida 187 mlrd. so‘mlik plastik kapsulalar ishlab chiqarilishiga erishildi.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida mahsulotlar **Eksporti hajmi 9,4 mln. dollarni** tashkil etdi (o‘sish **121 foiz**). Jumladan, sanoat mahsulotlari eksporti **6,7 mln. AQSH dollarini** yoki **113 foizni**, meva sabzavot mahsulotlari eksporti **2,7 mln. AQSH dollarini** yoki **149 foizni** tashkil etdi.

Hudduddagi "PET AGRO OIL" qo‘shma korxonasi tomonidan 6,2 mln. AKSH dollari miqdorida Tojikiston, Afg‘oniston, Janubiy Koreya va AKSH davlatlariga sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

2024-yilning ikkinchi yarim yilligida eng asosiy vazifamiz tumanda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’millash, asosiy soha va tarmoqlarda prognoz rejalarini belgilangan hajmda ijrosini ta’milashdan iborat.

Bunda, 2024-yilning yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni **2**

**trln. 814 mld.** so‘mga (105,3 foiz), qishloq xo‘jaligi **4 trln. 364 mld.** so‘mga (104,3 foiz), xizmat ko‘rsatish hajmlarini **1 trln. 667 mld.** so‘mga (116,1 foiz), chakana savdo aylanmasi hajmi **1 trln. 42 mld.** so‘mga (108,9 foiz), qurilish pudrat ishlari hajmi **1 trln. 416 mld.** so‘mga (107,6 foiz), mahsulotlar eksporti hajmini **31,7 mln. dollarga** (158 foiz) ijrosi ta’minlanadi.

**Aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish** bo‘yicha joriy yilning o‘tgan davri mobaynida aholini domiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta’minlashda **9230 ta** yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan bo‘lib, amalda **15057 ta** yangi ish o‘rinlari yaratilib, belgilangan reja **163 foizga** ijrosi ta’minlandi. O‘rnatilgan reja **5827 ta** ortig‘i bilan uddalandi.

Yaratilgan yangi ish o‘rinlarining **298** tasi investisiya loyihalari, **5540** tasi xizmat ko‘rsatish sohasida, **8562** tasi qishloq xo‘jaligi sohasida, **657** tasi qurilish sohasida to‘g‘ri keladi.

Tashabbuskor “Ma’rupov Anvar” tomonidan “poyafzal ishlab chiqarish” loyihasi ishga tushishi hisobiga 35 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etildi va byudjetga qo‘srimcha 2,0 mld. so‘mlik qo‘srimcha manba yaratildi, “Muhammadjon Shoxrzbek fayz” MCHJ tomonidan “milliy shirinliklar ishlab chiqarish” loyihasini kengaytirish hisobiga 20 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etildi va byudjetga qo‘srimcha 1,5 mld. so‘mlik qo‘srimcha manba yaratildi.

2024-yilning ikkinchi yarim yilligida **Aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratishda** 3-chorakda **7312 ta**, 4-chorakda **4048 ta** yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan bo‘lib, yillik reja **20842 taga** ijrosini ta’minlashiiz zarur.

Buning **1482** tasi investisiya loyihalari, **8736** tasi xizmat ko‘rsatish sohasida, **10046** tasi qishloq xo‘jaligi sohasida, **578** tasi qurilish sohasida to‘g‘ri keladi.

**Mahallalarda mikroloyihalarni amalga oshirish** bo‘yicha har bir mahallalarda 10 tadan mikroloyihalarni tashkil etish maqsadida joriy yilning o‘tgan davri mobaynida jami **12,8 mld.** so‘m kredit mablag‘lari ajratish hisobiga **515 ta (103 %)** mikroloyihalar amalga oshirilib, **845 nafar** fuqarolarning bandligi ta’minlandi.

Jumladan, **28** ta ixcham issiqxona, **35** ta asalari qutisi, **380** bosh chorva mollari, shunigdek boshqa yo‘nalishlarda **3,6 mld.** so‘mlik loyihalar amalga oshirilgan.

2024-yilning ikkinchi yarim yilligida tumanda **1000 ta** mikroloyihalar amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, 3-chorakda **472 ta**, 4-chorakda **528 ta** mikroloyihalar ishga tushuriladi.

Mikroloyihalarni ishga tushurish reja grafigi oyma-oy, sektorbay, mahallalar kesimida taqsimoti tasdiqlandi.

**Tomorqa yerlaridan samarali foydalanishda** hududda Sayxunobod va

Uychi tajribalarini joriy qilish ishlarini yangi darajaga olib chiqish maqsadida tumandagi mavjud **36,8** ming xonadonlar ixtiyorida bo‘lgan **4,2 ming** hektar tomorqa ekin maydonlaridan 2-3 marta hosil olish orqali aholining real daromadini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida tomorqa yer maydonlarida erta bahordan sabzavot **1893 hektar** (39,5 ming tonna), poliz **139 hektar** (2,9 ming tonna), kartoshka **871 hektar** (19,3 ming tonna), dukkakli ekinlar **184 hektar** (575 tonna), boshqa ekinlar **179 hektar** (3,1 ming tonna) ekinlarni ekilib, yuqori hosildorlik hisobiga mahsulotlar yetishtirildi.

### **Kichik va o‘rta biznes uchun ajratiladigan kreditlar yuzasidan:**

2024-yilning 8 oyida jami **11,1** mlrd. so‘mlik resurslar ajratilishi belgilangan bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida **12,6** mlrd. so‘mlik kreditlar **1 073** nafar aholi va tadbirkorlik subektlariga ajratildi.

Ushbu ajratilgan kreditlarni yo‘nalishlar kesimida

- aholi xonadonlari va dehqon xo‘jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari uchun issiqxonalar tashkil qilish yo‘nalishida 24 ta xonadonga 600,1 mln.so‘mni;
- hunarmandchilik yo‘nalishi bo‘yicha 3 ta xonadonga 50,3 mln.so‘mni;
- meva-sabzavot va bog‘dorchilik yo‘nalishida 404 ta xonadonga 3,2 mlrd.so‘m;
- chorvachilik yo‘nalishida 162 ta xonadonga 2,5 mlrd.so‘m;
- xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha 174 ta xonadonga 2,4 mlrd.so‘m;
- parrandachilik bo‘yicha 26 ta xonadonga 360,0 mln.so‘m;
- boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha 280 ta xonadonga 3,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan PQ-306-sون qarorga asosan **250 ta** (har bir mahalladan **5 tadan**) tadbirkorlik sub’yektlariga kredit ajratish rejalashtirilgan.

Joriy yilning 8 oyi davomida **82 ta** tadbirkorlik sub’yektiga **6,3 mlrd.so‘m** kredit ajratilgan.

Tumanda **50 ta** mahalla bo‘lib, sertifikat olgan tadbirkorlar soni **142 tani**, talab etilgan kredit miqdori **11 mlrd.so‘mni** tashkil etmoqda.

Bugungi kunda tumanda sertifikat berilmagan mahallalar yo‘q. **1 ta** sertifikat olgan mahallalar soni **1 tani**, kredit ajratilmagan mahallalar soni **mavjud emas**.

### ***Hurmatli deputatlar, tumantmiz faollari!***

Bugun Sizlar bilan Toyloq tumanini yanada rivojlantirish, mahallalarda ishsiz aholini bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha aniq reja va maqsadlarni belgilab oldik.

Ishonchim komil, birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan bu vazifalarni

albatta muvaffaqiyatli ado etamiz.